BO'LAJAK O'QITUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIMIDA REPRODUKTIV VA IJODIY FAOLIYAT INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Rashidxon Uulu Atabek
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,
Turan International University o'qituvchisi
atabekrashidxonugli@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3327-4909

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy pedagogik ta'limda talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqligini ta'minlashning tizimli pedagogik shartlari tahlil qilingan. Tadqiqotda topshiriqlarning qat'iy foizli nisbatidan voz kechilib, diagnostik-adaptiv o'zgaruvchanlik, epistemik baholash mezonlari, autentik kasbiy keyslar hamda axborot manbalarini verifikatsiya qilish protokollarini o'z ichiga olgan oltita pedagogik shart ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik shart-sharoitlar, mustaqil ta'lim, diagnostik-adaptiv ta'lim, kasbiy keys, epistemik mezon, axborot verifikatsiyasi, lateral reading.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИНТЕГРАЦИИ РЕПРОДУКТИВНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: *В данной статье проанализированы системные педагогические условия обеспечения взаимосвязи репродуктивных и творческих компонентов самостоятельной работы студентов в высшем педагогическом образовании. В исследовании, отказавшись от жёсткого процентного соотношения заданий, научно обоснованы шесть педагогических условий, включающих диагностико-адаптивную вариативность, эпистемические критерии оценивания, аутентичные профессиональные кейсы, а также протоколы верификации информационных источников.*

Ключевые слова: *педагогические условия, самостоятельное обучение, диагностико-адаптивное обучение, профессиональный кейс, эпистемический критерий, верификация информации, латеральное чтение.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE INTEGRATION OF REPRODUCTIVE AND CREATIVE ACTIVITIES IN THE INDEPENDENT LEARNING OF FUTURE TEACHERS

Abstract: *This article analyzes the systemic pedagogical conditions for ensuring the interrelation of the reproductive and creative components of students' independent work in higher pedagogical education. Moving away from a fixed percentage ratio of tasks, the study provides a scientific rationale for six pedagogical conditions, including diagnostic-adaptive variability, epistemic assessment criteria, authentic professional cases, and protocols for verifying information sources.*

Keywords: *pedagogical conditions, independent learning, diagnostic-adaptive learning, professional case, epistemic criterion, information verification, lateral reading.*

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'lim ularning kasbiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Biroq an'anaviy ta'lim jarayonida ko'pincha reproduktiv va ijodiy topshiriqlar uchun yagona, universal foizli nisbatlar (masalan, 40/60 yoki 50/50) tavsiya etiladi. Vaholanki, didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabaning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi, fan mazmunining xususiyati va topshiriqning murakkabligi hisobga olinmagan holda berilgan murakkab ijodiy topshiriqlar kognitiv ortiqcha yuklanishga yoki talabaning formal javob tayyorlashiga olib keladi.

Klassik va zamonaviy pedagogikada "shart" tushunchasi o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlovchi didaktik, tashkiliy va psixologik omillar majmui sifatida qaraladi (Yu.K. Babanskiy, V.I. Andreev, U.M. Mirsanov). Shu nuqtai nazardan, reproduktiv faoliyatdan ijodiy faoliyatga bosqichma-bosqich, asoslangan holda o'tishni kafolatlovchi pedagogik shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Maqolaning maqsadi — talabalar mustaqil ishida reproduktiv va ijodiy komponentlar uzviyligini ta'minlashning ilmiy-pedagogik shartlarini asoslashdir.

METODOLOGIYA VA METODLAR

Tadqiqotda tizimli-faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar doirasida quyidagi metodlar qo'llanildi:

- **Pedagogik shartlar tahlili:** Didaktik va psixologik adabiyotlardagi "tashkiliy-pedagogik", "didaktik" va "psixologik-pedagogik" shartlar tasnifi umumlashtirildi.
- **Kognitiv modellashtirish:** Chi va Wyliening ICAP modeli (Interactive, Constructive, Active, Passive) hamda Kapur va Sinhaning Productive Failure konsepsiyasi mustaqil ta'lim dizayniga tatbiq etildi.

- **Didaktik tajriba loyihasi:** Talabalar uchun axborot manbalarini tanqidiy baholash protokoli ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida reproduktiv va ijodiy komponentlar uzviyligini ta'minlovchi **oltita asosiy pedagogik shart** tizimi shakllantirildi:

1. **Mustaqil ish maqsadi va baholash mezonlarini epistemik mazmun bilan boyitish:** topshiriqda faqat "o'rganing" yoki "konspekt qiling" emas, balki epistemik maqsad, epistemik ideal va ishonchli jarayon aniq ko'rsatiladi.
2. **Topshiriqlar kontinuumini diagnostik-adaptiv tashkil etish:** talabaning o'quv imkoniyatlariga mos ravishda 4 ta faoliyat darajasi (reproduktiv, rekonstruktiv-variativ, evristik-tadqiqiy, kreativ-produktiv) integratsiyalanadi.
3. **Autentik kasbiy muammo va transfer tizimini yaratish:** o'zlashtirilgan nazariy bilimlar real ta'lim amaliyotidagi muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi.
4. **Pedagogik struktura va talaba avtonomiyasi muvozanatini ta'minlash:** talabaning kompetentligi oshishi bilan o'qituvchi yordami bosqichma-bosqich qisqartiriladi (fading prinsipi).
5. **Refleksiv-dialogik va formativ teskari aloqa tizimini yaratish:** birlamchi mahsulot → o'zini baholash → tengdoshlar ekspertizasi (peer review) → qayta ishlash siklini joriy etish.
6. **Axborot manbalarini kritik verifikatsiya qilish:** talaba uchun internet manbalarining ilmiy maqomini tekshirish bo'yicha maxsus protokol tatbiq etiladi.

Metodik bosqich	Talabaning asosiy harakati	Epistemik savol	Kutiladigan mahsulot
Reproduk-siya	Asosiy tushuncha va usullarni tiklaydi	"Men nimani bilaman?"	Tayanch bilim modeli
Verifikatsi-ya	Manba va dalilni tekshiradi	"Buni qayerdan va nima asosida bilaman?"	Verifikatsiya qilingan bilim
Rekonst-ruksiya	Qiyoslaydi, guruhlaydi, qayta tuzadi	"Bilimlar qanday bog'langan yoki zid?"	Konseptual qayta tuzilma
Transfer	Bilimni yangi vaziyatga ko'chiradi	"Bu boshqa vaziyatda qanday ishlaydi?"	Nostandart amaliy yechim

Generatsiya	Yangi metod, model yoki gipoteza yaratadi	"Qanday yangi yechim taklif qila olaman?"	Ijodiy pedagogik mahsulot
Refleksiya	Mahsulot va jarayonni baholaydi	"Natijam qanchalik asosli?"	Metakognitiv-epistemik xulosa

MUHOKAMA

Sinha va Kapurning meta-tahlilida (53 tadqiqot, g = 0.36) ko‘rsatilganidek, talabaga tayyor yo‘riqnomani berishdan oldin muammoga to‘qnash kelish imkonini berish bilimning chuqurlashishiga olib keladi. Biz ishlab chiqqan pedagogik shartlar chiziqli "oddiydan murakkabga" tamoyilidan ko‘ra, spiralsimon uzviylikni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Fendt va hammualliflarining (2025) manbalarni tekshirishga doir xulosalari (g = 0.42) talabalarda axborotni tekshirish protokoli (lateral reading) bo‘lmasa, mustaqil ishlarning ijodiy qiymati pasayib ketishini ko‘rsatadi.

XULOSA

Taklif etilgan pedagogik shartlar tizimi mustaqil ta’lim jarayonini o‘qituvchining tashqi nazoratidan talabaning ichki o‘zini o‘zi boshqarishiga aylantiradi. Bu sharoitda talaba tayanch bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, ularni yangi pedagogik vaziyatlarga transfer qilib, ilmiy asoslangan ijodiy mahsulotlar yaratish imkoniga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rashidxon Uulu Atabek. Talabalar mustaqil ishining reproduktiv va ijodiy tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liqligini epistemik ta’minlash: Monografiya. – Namangan: "Sunrise-pro", 2026. – 216 b.
2. Бабанский Ю. К обучение в современной общеобразавотеной школе – М.: Просвещение, 1985. – 208 с.
3. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (DSc) diss. – Navoiy, 2023. – 332 b.
4. Sinha T., Kapur M. When Problem Solving Followed by Instruction Works: An Explicit Analysis // Review of Educational Research. – 2021. – Vol. 91(5). – P. 761–798.
5. Patzak A., Zhang X. Autonomy Support and Structure in Education: A Systematic Review and Meta-Analysis // Educational Psychology Review. – 2024.
6. Fendt M., Muth K., Edelsbrunner P. Sourcing Skills Interventions: A Meta-Analysis // Learning and Instruction. – 2025.